



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No3
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, aprel.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BUXGALTERIYA VA EKOLOGIK HISOBOT (ESG HISOBOTLARI).....	21
Abdukirimov Qamariddin Isroiljon o'g'li, Abdurashidov Faxriddin Fazliddin o'g'li, Beknazarov Zafarjon Ergachevich	
YASHIL INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISH – BARQAROR IQTISODIY O'SISHNING ASOSIY YO'NALISHI	26
Yarboyeva Farida Ulug'bek qizi, Yoqubova Zilola To'ra qizi	
RAQAMLI SOLIQ NAZORATINING BUXGALTERIYA TIZIMIGA TA'SIRI	30
Abdulaxatov Mirkomil O'rol o'g'li, Rustamov Davron Rustamovich	
ИННОВАЦИОННЫЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	34
Насиров Дилшод Фархадович, Халманова Шахзода, Кенесбаева Азиза	
O'ZBEKISTON TURIZM TIZIMIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	39
Normurodov X.E., Abdurazakova Farangis Dilshod qizi	
СОВРЕМЕННЫЕ ШКОЛЫ НАУКИ УПРАВЛЕНИЯ И ИХ ОСНОВНЫЕ ИДЕИ.....	44
Латипов Ашур Али Рустам ўғли, Джамолова Хилола Исматиллаевна	
O'ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA MOSLASHTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	50
Qosimova Fazilat Sherzod qizi, Shermuxamedov Bexzodjon Usmonovich	
MARKAZIY BANK RAQAMLI VALYUTALARI VA GLOBAL PUL TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	57
Jumanova Shaxlo Boxodir qizi, Shovkatov Nodirjon Ne'matjon o'g'li	
RAQOBAT VA MONOPOLIYA SHAROITIDA BOZOR SAMARADORLIGI HAMDA IQTISODIY RIVOJLANISH OMILLARI	62
Yo'ldashaliyev Muxammadaziz Xabibulla o'g'li, Yoqubova Zilola Tura qizi	



RAQOBAT VA MONOPOLIYA SHAROITIDA BOZOR SAMARADORLIGI HAMDA IQTISODIY RIVOJLANISH OMILLARI

Yo'ldashaliyev Muxammadaziz Xabibulla o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,
Iqtisodiyot fakulteti, Menejment yo'nalishi 1-kurs talabasi

Tel.: (94) 305-06-86

E-mail: yuldashaliyevmukhammadaziz@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Yoqubova Zilola Tura qizi

O'zMU Iqtisodiyot fakulteti, Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola raqobat va monopoliyaning nazariy asoslarini, turli bozor tuzilmalarini hamda O'zbekiston iqtisodiyotidagi monopolistik tendensiyalarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Mukammal raqobat, monopolistik raqobat, oligopoliya va sof monopoliya modellari keng qamrovli tarzda o'rganiladi. Tadqiqot qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va statistik metodologiyaga asoslanadi. AQSh va Yevropa Ittifoqining antimonopol siyosati tajribasi asosida raqobat muhitining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri baholangan. O'zbekiston sharoitida raqobat muhitini rivojlantirish imkoniyatlari, monopoliyaning salbiy oqibatlari va amaliy tavsiyalar taqdim etiladi. Maqolaning ilmiy yangiligi O'zbekistondagi bozor tuzilmalarini global raqobat nazariyalari bilan birgalikda kompleks va qiyosiy tahlil qilinganligida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: raqobat, monopoliya, oligopoliya, bozor tuzilmasi, antimonopol siyosat, narx shakllanishi, iqtisodiy samaradorlik, Bertrand modeli, Cournot modeli, O'zbekiston.

Abstract: This article is devoted to the analysis of the theoretical foundations of competition and monopoly, various market structures, and monopolistic tendencies in the economy of Uzbekistan. Models of perfect competition, monopolistic competition, oligopoly, and pure monopoly are comprehensively studied. The research is based on comparative analysis, a systematic approach, and statistical methodology. Based on the antitrust policy experience of the USA and the European Union, the impact of the competitive environment on economic efficiency is assessed. Opportunities for developing a competitive environment in the context of Uzbekistan, the negative consequences of monopoly, and practical recommendations are presented. The scientific novelty of the article lies in the complex and comparative analysis of market structures in Uzbekistan in conjunction with global competition theories.

Key words: competition, monopoly, oligopoly, market structure, antitrust policy, pricing, economic efficiency, Bertrand model, Cournot model, Uzbekistan.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу теоретических основ конкуренции и монополии, различных рыночных структур, а также монополистических тенденций в экономике Узбекистана. В работе всесторонне рассматриваются модели совершенной конкуренции, монополистической конкуренции, олигополии и чистой монополии. Исследование базируется на сравнительном анализе, системном подходе и статистической методологии. На основе опыта антимонопольной политики США и Европейского союза оценено влияние конкурентной среды на экономическую эффективность. Представлены возможности развития конкурентной среды в условиях Узбекистана, негативные последствия монополии и даны практические рекомендации. Научная новизна статьи заключается в комплексном и сравнительном анализе рыночных структур Узбекистана в сочетании с глобальными теориями конкуренции.

Ключевые слова: конкуренция, монополия, олигополия, рыночная структура, антимонопольная политика, ценообразование, экономическая эффективность, модель Бертрана, модель Курно, Узбекистан.



KIRISH

Raqobat bozor iqtisodiyotining muhim mexanizmi bo'lib, resurslardan samarali foydalanish, texnologik rivojlanish va iste'molchilar farovonligini oshiradi. Adam Smitning "ko'rinmas qo'l" nazariyasidan boshlab, zamonaviy tarmoqlar iqtisodiyoti (Industrial Organization) nazariyasigacha, raqobat bozor iqtisodiyoti samaradorligining markaziy omili sifatida tan olinib kelmoqda [1, 3]. Biroq haqiqiy hayotda bozorlar ko'pincha monopolistik kuchlar, oligopolistik muvozanat yoki raqobatni cheklovchi to'siqlar ta'sirida bo'ladi.

Monopoliya bozorda bitta yirik sotuvchi yoki ishlab chiqaruvchi ustun mavqega ega bo'lgan holatdir. Monopolist narx shakllanishi ustidan to'liq nazoratga ega bo'lgani sababli, maksimal foyda olish maqsadida mahsulot narxini yuqori belgilaydi va ishlab chiqarish hajmini raqobatli bozor muvozanatiga nisbatan sezilarli darajada cheklaydi.

Natijada, iste'molchi ortiqcha qiymatining (consumer surplus) bir qismi ishlab chiqaruvchi foydasiga o'tadi, qolgan qismi esa boy beriladi. Bu holat iqtisodiyotda jamiyatning sof yo'qotishlari yoki farovonlikning sof yo'qotilishi (deadweight loss) yuzaga kelishiga olib keladi [2, 17].

O'zbekiston Respublikasi bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida raqobat muhitini shakllantirish borasida izchil islohotlarni amalga oshirmoqda. Mamlakatimizda raqobatni tartibga soluvchi maxsus organ — Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi dastlab 1992-yilda tashkil etilgan bo'lib, 1996-yilda u tarkibiy jihatdan qayta shakllantirildi. Sohani huquqiy tartibga solishni takomillashtirish maqsadida 2012-yilda "Raqobat to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan bo'lsa, 2023-yil 3-iyulda ushbu qonun hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib yangi tahrirda tasdiqlandi [4, 16]. Shunga qaramay, Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining (YeTTB) 2023–2024-yillar uchun hisobotida qayd etilishicha, O'zbekiston iqtisodiyotining ayrim strategik tarmoqlari hanuzgacha davlat monopoliyalari yoki dominant mavqega ega korxonalar nazoratida qolmoqda [5].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqobat va monopoliya iqtisodiy nazariyasining tarixiy rivojlanishi turli maktablar hamda yondashuvlarda o'z aksini topgan. Xususan, Adam Smit o'zining muhim hisoblangan "Xalqlar boyligining tabiati va sabablari haqida tadqiqot" asarida erkin raqobat bozori resurslarni samarali taqsimlashini dastlabki bor tizimli tarzda asoslab bergan. Olimning "ko'rinmas qo'l" konsepsiyasi individual manfaatlarning erkin raqobat sharoitida muvozanatlashishi jamiyat uchun eng maqbul natijalarga olib kelishini ilmiy jihatdan tushuntirib beradi [1].

Joan Robinson va Edvard Chamberlin bir-biridan mustaqil ravishda monopolistik raqobat nazariyasini ishlab chiqdilar [7, 14]. Xususan, Robinson o'zining "Nomukammal raqobat iqtisodiyoti" asarida monopolistik kuchga ega bo'lgan firmalarning narx belgilash strategiyalarini matematik modellashirish orqali raqobatning mukammal bo'lmagan shakllarini izohlab berdi [7].

Genrix fon Shtakelberg (Heinrich von Stackelberg) o'zining oligopoliya modelida yetakchi va ergashuvchi firmalar o'rtasidagi strategik o'zaro munosabatlarni o'rganib, strategik ta'sir doktrinasiga asos soldi [9]. Ogustin Kurno (Augustin Cournot) va Jozef Bertran (Joseph Bertrand) esa mos ravishda miqdor va narx bo'yicha raqobat modellarini taqdim etdilar. Mazkur modellar bugungi kunda ham tarmoqlar iqtisodiyoti (Industrial Organization) nazariyasining fundamental vositalari hisoblanadi [8, 10].

Zamonaviy raqobat nazariyasida Jan Tirol (Jean Tirole, 2014-yilgi Nobel mukofoti sovrindori) platforma iqtisodiyoti va ikki tomonlama bozorlar (two-sided markets) kontekstida monopol kuch hamda raqobat siyosatining yangi yondashuvlarini ishlab chiqdi. Uning tadqiqotlari raqamli iqtisodiyotdagi yirik texnologik platformalar (Google, Amazon, Meta kabi) faoliyatini antimonopol tartibga solishda yangi standartlarni belgilab berdi [3, 11].

O'zbekistonlik olimlar ham mazkur soha rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar. Xususan, B.X. Yo'ldashev va uning hamkasblari O'zbekiston bozorlaridagi raqobat muhitini baholash jarayonida asosiy tarmoqlarda hanuzgacha monopolistik tendensiyalar saqlanib qolmayotganligini ilmiy jihatdan asoslab berdilar [12]. D. Ortiqov esa davlat antimonopol siyosatining samaradorligini tahlil qilib, amaldagi qonunchilik normalari bilan real bozor amaliyoti o'rtasidagi muayyan tafovutlarni aniqladi [13].

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarni umimlashtirgan holda ta'kidlash joizki, raqobat va monopoliya borasidagi ilmiy qarashlar bugungi kunda ikki asosiy yo'nalish doirasida rivojlanmoqda. Birinchi yo'nalish hisoblangan klassik va neoklassik yondashuvda asosiy e'tibor narx mexanizmlari, resurslarni taqsimlash samaradorligi hamda bozor muvozanati masalalariga qaratilsa, ikkinchi yo'nalish — strategik o'zaro munosabatlar nazariyasi doirasida o'yinlar nazariyasi va dinamik raqobat tahlili vositalari yordamida firmalarning bozordagi strategik



xulq-atvori tadqiq etiladi. Mazkur maqola ushbu ikki yondashuv sintezi asosida O'zbekiston bozor tuzilmalarini kompleks tahlil qilish hamda milliy iqtisodiyotdagi monopolistik tendensiyalarni tizimli baholashni maqsad qilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda iqtisodiy tahlilning bir qator ilmiy metodlaridan kompleks ravishda foydalanildi. Xususan, qiyosiy tahlil usuli orqali AQSh va Yevropa Ittifoqi kabi rivojlangan mamlakatlarning antimonopol siyosati hamda raqobat qonunchiligi O'zbekiston tajribasi bilan o'zaro taqqoslandi. Bunda AQSh va Yevropa Ittifoqi modellari antimonopol tartibga solishning eng takomillashgan tizimlari sifatida tanlab olingan bo'lsa, O'zbekiston iqtisodiyoti o'tish davri va tarkibiy islohotlar bosqichidagi o'ziga xos namuna sifatida tahlil qilindi. Mazkur yondashuv milliy bozordagi raqobat muhitini xalqaro standartlar asosida baholash va mavjud kamchiliklarni aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv qo'llanib, raqobat va monopoliya iqtisodiy, huquqiy hamda institutsional jihatdan tahlil qilindi. Monopol hamda raqobatli bozorlarda narx shakllanishi o'rtasidagi fundamental farqlarni tahlil qilishda grafik va matematik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Xususan, talab va taklif egri chiziqlari, shuningdek, chekli daromad (MR) va chekli xarajatlar (MC) tahlili orqali bozor muvozanati hamda jamiyat farovonligi yo'qotishlari ko'rsatib berildi. Milliy iqtisodiyotdagi asosiy tendensiyalarni aniqlash maqsadida YeTTB, Jahon banki hamda O'zbekiston Respublikasi Raqobat qo'mitasining rasmiy ma'lumotlariga tayangan holda statistik tahlil metodlari qo'llanildi [5, 16].

Tadqiqotning axborot-empirik bazasini keng ko'lamli rasmiy va ilmiy manbalar majmuasi tashkil etadi. Xususan, tahliliy jarayonlarda Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining (YeTTB) "O'tish davri hisoboti – 2023" (Transition Report 2023–24), Jahon bankining mamlakat bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlari hamda O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining yillik hisobotlaridan keng foydalanildi. Shuningdek, tadqiqotning huquqiy asoslarini O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari, nazariy asoslarini esa sohadagi xorijiy va mahalliy olimlarning fundamental ilmiy ishlari hamda maqolalari tashkil etadi. Mazkur ma'lumotlar bazasi tadqiqot natijalarining ishonchligi va ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qiladi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor tuzilmalari tasnifi va ularning asosiy xususiyatlari. Iqtisodiy nazariyada bozor tuzilmalari o'zaro farqlanuvchi to'rtta asosiy modelga bo'linadi. Ularning birinchisi — mukammal raqobat bozoridir. Mazkur tuzilma ko'p sonli kichik sotuvchilarning bir xil (standartlashgan) mahsulotlarni sotishi bilan xarakterlanadi. Bu sharoitda bozorga kirish va undan chiqish uchun hech qanday to'siqlar mavjud emas, narx esa bozor mexanizmlari (talab va taklif) asosida shakllanadi. Mukammal raqobat modelida narxning chekli xarajatga tengligi ($P=MC$) resurslarning eng yuqori darajadagi samarali taqsimlanishini ta'minlaydi. Garchi ushbu tuzilma nazariy jihatdan ideal hisoblansa-da, real iqtisodiyotda unga to'liq mos keladigan bozorlar deyarli uchramaydi; qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori bu modelga eng yaqin misol sifatida keltiriladi [2, 6].

Monopolistik raqobat sharoitida ko'p sonli firmalar bir-biridan o'zining xususiyatlari bilan ajralib turuvchi differensiallashgan mahsulotlarni taklif etadilar. Bunday bozorda har bir firma o'z mahsuloti uchun cheklangan darajada monopol kuchga ega bo'lsa-da, sohaga kirish to'siqlarining pastligi raqobat muhitini saqlab qoladi. Mazkur model chakana savdo, restoran biznesi va kosmetika kabi ko'plab xizmat ko'rsatish tarmoqlari uchun xosdir. Oligopoliya bozorida esa bir necha yirik firma hukmronlik qiladi va ularning faoliyatida strategik o'zaro ta'sir, ya'ni raqobatchilarning qarorlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga misol sifatida neft sanoati, avtomobilsozlik va telekommunikatsiya tarmoqlarini keltirish mumkin. Bozor tuzilmalarining ekstremal shakli hisoblangan sof monopoliyada yagona sotuvchi bozorni to'liq nazorat qiladi. Ushbu tuzilmada mahsulotning yaqin o'rnini bosuvchilari mavjud emasligi va kirish to'siqlarining o'ta yuqoriligi monopolchiga narx ustidan mutlaq hukmronlik qilish imkonini beradi [3, 14].

Monopoliyaning iqtisodiy oqibatlari. Monopolist o'z foydasini maksimallashtirish maqsadida ishlab chiqarish hajmini chekli daromad chekli xarajatga teng bo'lgan nuqtada ($MR=MC$) belgilaydi. Biroq chekli daromadning narxdan kichikligi ($MR < P$) sababli, monopol narx raqobatli bozor narxidan sezilarli darajada yuqori, ishlab chiqarish hajmi esa past bo'ladi. Mazkur nomutanosiblik iqtisodiyotda ikki xil salbiy oqibatni keltirib chiqaradi:

Birinchidan, iste'molchi ortiqcha qiymatining (consumer surplus) salmoqli qismi ishlab chiqaruvchiga o'tadi, ya'ni resurslar iste'molchidan monopolist foydasiga qayta taqsimlanadi. Ikkinchidan, iqtisodiyotda "o'lik og'irlik yo'qotishi" (deadweight loss) yuzaga keladi. Bu holat jamiyat nuqtai nazaridan na ishlab chiqaruvchi va na iste'molchi tomonidan o'zlashtirilmaydigan, boy berilgan ijtimoiy farovonlikni anglatadi (1-rasm).



1-rasm. Monopol bozorda narxning shakllanishi va ijtimoiy farovonlikning boy berilishi¹

Ushbu rasmda monopol bozor sharoitida narx, ishlab chiqarish hajmi va foydaning shakllanish mexanizmi tasvirlangan. Monopolist korxona foydani maksimal darajada oshirish maqsadida mahsulot hajmini chekli daromad (MR) va chekli xarajat (MC) tenglashgan nuqtada belgilaydi hamda talab egri chizig'i asosida yuqoriroq narx o'rnatadi. Natijada mukammal raqobat bozoriga nisbatan mahsulot hajmi qisqaradi, narx esa oshadi.

Rasmda ko'rsatilganidek, monopol bozor kuchi tufayli ishlab chiqaruvchining ortiqcha foydasi yuzaga keladi. Shu bilan birga, yuqori narxlar va cheklangan taklif sababli iste'molchilar farovonligining bir qismi yo'qoladi hamda sof iqtisodiy yo'qotish (deadweight loss) paydo bo'ladi. Mukammal raqobat sharoitida esa narx chekli xarajatlarga teng bo'lib, resurslar samaraliroq taqsimlanadi.

Mazkur model monopoliyaning bozordagi salbiy oqibatlari, xususan narxlarning oshishi, ishlab chiqarish hajmining kamayishi va ijtimoiy farovonlikning pasayishini iqtisodiy nazariya nuqtai nazaridan tushuntiradi.

Jahon tajribasi: AQSh va Yevropa Ittifoqi antimonopol siyosati. Zamonaviy antimonopol siyosatning asoslari dastlab AQSh tajribasida shakllangan. AQShda raqobatni himoya qilish tarixi 1890-yilda qabul qilingan va dunyodagi birinchi antimonopol hujjat hisoblangan Sherman qonunidan boshlanadi. Tizimni yanada takomillashtirish maqsadida 1914-yilda Kleyton qonuni (Clayton Act) qabul qilindi va Federal savdo komissiyasi (FTC) tashkil etildi. AQSh tarixidagi eng muhim sud precedentlaridan biri — 1911-yilda "Standard Oil" kompaniyasini bo'linishga majbur etish bo'lib, bu monopoliyaga qarshi kurashning qudratli namunasi sifatida e'tirof etiladi [11]. Bugungi kunda ham AQSh antimonopol organlari Google, Amazon va Meta kabi texnologiya gigantlarining bozordagi hukmron mavqeini suiiste'mol qilish holatlarini qat'iy tekshiruv ostiga olgan [11].

Yevropa Ittifoqi tajribasi va xalqaro xulosalar. Yevropa Ittifoqining (Yel) antimonopol tizimi fundamental huquqiy hujjat — Yevropa Ittifoqining faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi shartnomaning (TFEU) 101 va 102-moddalariga asoslanadi. Xususan, 102-modda subyektlarning bozordagi dominant mavqeini suiiste'mol qilishini qat'iy taqiqlaydi. Yel antimonopol organlarining qat'iyatlilikiga yaqqol misol sifatida 2018-yilda Google kompaniyasiga raqobat qoidalarini buzgani uchun 4,34 milliard yevro miqdorida jarima solinganini keltirish mumkin; bu ko'rsatkich jahon antimonopol amaliyotidagi eng yirik sanksiyalardan biri hisoblanadi [15]. Hozirgi kunda Yel modeli raqamli bozorlarni tartibga solishda ilg'or yondashuvlarni joriy etmoqda. Masalan, 2022-yilda qabul qilingan "Raqamli bozorlar to'g'risida"gi qonun (Digital Markets Act – DMA) "darvozabon" (gatekeepers) maqomidagi yirik texnologik platformalar uchun maxsus majburiyatlar yukladi [15].

AQSh va Yel tajribalarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, samarali antimonopol siyosatning tayanch ustunlari — nazorat organlarining mustaqilligi, huquqiy asoslarning shaffofligi hamda davlat intervensiyasining bozor mexanizmlari bilan oqilona uyg'unlashuvidir. Mazkur xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka moslashtirish O'zbekiston kabi rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun strategik ahamiyatga ega.


O'zbekistonda raqobat muhitining hozirgi holati va huquqiy tartibga solinishi. O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti tamoyillarini chuqurlashtirish jarayoni milliy raqobat muhitini shakllantirishda sezilarli ijobiy o'zgarishlarga olib keldi. Ayniqsa, 2023-yil 3-iyulda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Raqobat to'g'risida"gi O'RQ-850-sonli Qonun

¹ muallif ishlanmasi



sohadagi islohotlarning huquqiy poydevori bo'lib xizmat qilmoqda [4]. Mazkur qonunchilikka ko'ra, bozordagi ulushi 35 foizdan yuqori bo'lgan subyektlarning dominant holatini aniqlash, o'zaro narxlarni muvofiqlashtirish (kartel kelishuvlari) va bozorni bo'lishib olish kabi monopolistik harakatlar qat'iyon taqiqlanadi [4].

Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining ma'lumotlari hamda YeTTBning (EBRD) 2023–2024-yillarga mo'ljallangan "O'tish davri hisoboti" tahlillariga ko'ra, mamlakat iqtisodiyotida hamon tarkibiy monopoliyalar saqlanib qolmoqda [16]. Xususan, 2023-yil davomida aniqlangan 47 ta yirik antimonopol tartibbuzarlik holatlarining asosiy qismi energetika resurslari, qurilish materiallari ishlab chiqarish va oziq-ovqat mahsulotlari ulgurji savdosi tarmoqlariga to'g'ri kelgan [16]. Bu holat strategik tarmoqlarda davlat ishtirokini kamaytirish va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash orqali raqobat muhitini yanada sog'lomlashtirish zarurligini ko'rsatadi (2-rasm).



2-rasm. O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi hajmi dinamikasi (2021–2025 yy.), trln so'm [18]

Rasm ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi hajmi 2021-yildagi 455,7 trln so'mdan 2025-yilda 923,5 trln so'mga yetib, so'nggi besh yil davomida izchil o'sish sur'atlarini namoyon etgan. Bu esa mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ushbu sektorning iqtisodiyotdagi o'rni mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi.

2025-yil yanvar–dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 93,1 %, qurilishda 75,6 %, xizmatlar sohasida 47,2 % hamda sanoatda 28,5 % ni tashkil etdi [18]. Mazkur ko'rsatkichlar kichik biznes subyektlari ayniqsa qishloq xo'jaligi va qurilish tarmoqlarida yetakchi mavqega ega ekanini, shu bilan birga xizmatlar va sanoat sohaslarida ham muhim o'rin tutayotganini anglatadi.

Tarmoqlar kesimidagi tahlil va davlat ishtiroki. O'zbekiston iqtisodiyotini isloh qilish yo'lidagi ijobiy qadamlarga qaramay, YeTTBning (EBRD) 2023-yilgi "O'tish davri hisoboti" tahlillari shuni ko'rsatadiki, bir qator strategik tarmoqlar hamon yuqori darajadagi monopollashuv sharoitida qolmoqda. Xususan, tabiiy gaz taqsimoti, temir yo'l tashuvlari, elektr energiyasi ta'minoti va ichimlik suvi tarmoqlari hali ham tabiiy monopoliya subyektlari tomonidan nazorat qilinmoqda. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, davlat ulushi mavjud korxonalarning iqtisodiyotdagi salmog'i YAIMga nisbatan taxminan 40–45 foizni tashkil etib, bu ko'rsatkich Markaziy Osiyo mintaqasidagi o'rtacha darajadan sezilarli yuqoridir [5].

Shu bilan birga, 2020–2024-yillar mobaynida amalga oshirilgan tarkibiy islohotlar, xususiylashtirish dasturlari va tashqi savdoning liberallashtirilishi raqobat muhitini sog'lomlashtirishga xizmat qildi. Masalan, aviaqatnovlar bozorining ochilishi va ayrim davlat aktivlarining xususiy sektorga o'tkazilishi natijasida bozorda raqobatchi subyektlar soni ortib, xizmat ko'rsatish sifati yaxshilangani kuzatilmoqda. Biroq, davlat ishtiroki yuqori bo'lgan tarmoqlarda resurslarning samarali taqsimlanishiga erishish uchun institutsional islohotlarni davom ettirish zarurati dolzarbligicha qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqobat iqtisodiyot samaradorligini oshiradi, monopoliya esa narxlarning oshishiga va resurslarning nomutanosib taqsimlanishiga olib keladi. AQSh va Yevropa Ittifoqi tajribasi shuni tasdiqlaydiki, samarali antimonopol siyosat mustaqil va malakali tartibga solish organlari, shaffof qonunchilik bazasi hamda proaktiv bozor monitoringi tizimiga tayanishi lozim. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida



platformalar monopolizmiga qarshi kurashda Yelning “Raqamli bozorlar to‘g‘risida”gi (DMA) qonuni kabi zamonaviy yondashuvlarni o‘rganish va milliy qonunchilikka moslashtirish strategik ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda raqobat muhitini yanada sog‘lomlashtirish uchun birinchi navbatda iqtisodiyotda davlat ishtirokini izchil kamaytirish va davlat korxonalari ulushini pasaytirish zarur. Shuningdek, Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining institutsional va moliyaviy mustaqilligini oshirish, xodimlarning xalqaro malakasini ta‘minlash borasidagi islohotlarni jadallashtirish lozim.

Kelgusida raqamli bozorlar uchun alohida raqobat normalarini ishlab chiqish va texnologik platformalarni muntazam monitoring qilish orqali bozorga kirish to‘siqlarini kamaytirish mumkin. Shu bilan birga, davlat xaridlari tizimida shaffoflikni kuchaytirish va yashirin kelishuvlarga (kolluziyalarga) qarshi kurashishning raqamli mexanizmlarini joriy etish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 03.07.2023 yildagi “Raqobat to‘g‘risida”gi O‘RQ-850-sonli Qonuni, <https://lex.uz/uz/docs/-6518381>
2. O‘zbekiston Respublikasi Raqobat qo‘mitasi. 2023-yilgi yillik hisobot. Toshkent, 2024.
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari. Toshkent, 2026.
4. Smit A. Xalqlar boyligining tabiati va sabablari haqida tadqiqot. London: W. Strahan va T. Cadell, 1776.
5. Varian H. R. Oraliq mikroiqtisodiyot: Zamonaviy yondashuv. 9-nashr. Nyu-York: W.W. Norton & Company, 2014.
6. Tirol J. Sanoatni tashkil etish nazariyasi. Kembrij, MA: MIT Press, 1988.
7. YeTTB. O‘tish davri hisoboti 2023–24: Katta va kichik o‘zgarishlar. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, 2024.
8. Marshall A. Iqtisodiyot tamoyillari. London: Macmillan, 1890.
9. Robinson J. Nomukammal raqobat iqtisodiyoti. London: Macmillan, 1933.
10. Kurno A. Boylik nazariyasining matematik tamoyillari bo‘yicha tadqiqotlar. Nyu-York: Macmillan, 1897 (asl nashri 1838).
11. Shtakelberg G. fon. Bozor shakli va muvozanat. Vena: Julius Springer, 1934.
12. Bertran J. Ijtimoiy boylikning matematik nazariyasi. Journal des Savants, 1883, 499–508-betlar.
13. Tirol J. Umumiy farovonlik uchun iqtisodiyot. Prinston universiteti nashriyoti, 2017.
14. Yo‘ldashev B.X., Razzaqov A.S. O‘zbekiston bozorlarida raqobat muhitini baholash // O‘zbekiston iqtisodiy jurnali. № 4, 2022.
15. Ortikov D. Davlat antimonopol siyosatining samaradorligi // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. № 2, 2023.
16. Chemberlin E.G. Monopolistik raqobat nazariyasi. Kembrij: Garvard universiteti nashriyoti, 1933.
17. Yevropa Komissiyasi. Raqobat siyosati bo‘yicha yillik hisobot 2023. Bryussel: Yevropa Komissiyasi, 2023.
18. Stiglits J.E., Uolsh K.E. Iqtisodiyot. 4-nashr. Nyu-York: W.W. Norton & Company, 2006.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

3-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
